



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 19-fevral

76-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 13-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-noyabrdagi “Tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish va tadbirkorlik sub'ektlarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3351-son qaroriga o‘zgartirish kiritish haqida” 2025-yil 6-fevraldagi PQ-42-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 71-6-0-Q/25-son qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-noyabrdagi “Tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3351-son qaroriga o‘zgartirish kiritish haqida” 2025-yil 6-fevraldagi PQ-42-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 13-fevraldagi 71-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-noyabrdagi “Tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3351-son qaroriga o‘zgartirish kiritish haqida” 2025-yil 6-fevraldagi PQ-42-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 13-fevraldagi 71-6-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-fevraldagi PQ-42-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-noyabrdagi “Tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3351-son qaroriga ilovaning 2-pozitsiyasi “TIF TN bo‘yicha kodi” ustuni quyidagi tahrirda:

“2709 00, 2710 (2710 12 410 0-2710 12 590 0, 19 290 0, 2710 19 820 0, 2710 19 840 0, 2710 19 880 0 dan tashqari)” bayon etilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari–iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Abdusalomov hamda tuman hokimining o‘rinbosari-Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi boshlig‘i zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov